

TILLARNI MUSTAQIL O'RGANISHDA INSON RUHIYATINING O'RNI

Abramatova Saida Panji qizi

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Surxondaryo akademik litseyi ingliz
tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ma'lumki, hozirgi kunda chet tillarini bilish ko'pgina sohalarda ustunlik beradi. Shu bois til o'rganish ba'zi insonlar uchun qiyinchilik tug'dirishi tabiiy. Ushbu maqolada qanday qilib mustaqil ravishda tillarni samarali o'rganish mumkinligi haqida tavsiyalar, sinalgan usullar va bu borada poliglotlarning (ko'p til biluvchilarning) hayotiy tajribalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: poliglotlar, Kato Lomb, qobiliyat, ixlos, puxta o'ylangan reja, jazo turlari, badiiy adabiyot, lug'at boyligi

Bugungi kunda dunyo tillarini o'rganishga bo'lgan talab nihoyatda ortib bormoqda. Ko'pchilik biror tilni o'qituvchilar ko'magida o'rganadilar. Lekin buni mustaqil bajarsa ham bo'ladi. Faqat bunda o'ziga bo'lgan kuchli ishonch talab etiladi. Misol tariqasida poliglotlarni keltirish mumkin, jumladan, vengir fizik va ximigi, dastlabki sinxron tarjimonlardan biri va mashhur poliglot bo'lmish Kato Lomb, u bu haqida shunday degan edi: "Chet tilini o'rganishda o'zgarish sezilmasa, unda saviyasiz kitoblarni, tilning qiyinligini, noqulay siyosiy vaziyat yoki ob-havoni ayplash kerak. Lekin eng muqaddas narsa, ya'ni o'ziga til tekkizilmasa bo'ldi. Chunki bu qat'iyatsizlikka olib keladi. O'z qobiliyatlariga inson ishonishi kerak. Shunda til o'rganishdagi muvaffaqiyat ham tog'lar ortida emas". Agar ularning tarjimayi holiga e'tibor bersak, shuni ko'ramizki, ular yangi tilni biror o'ziga yoqqan badiiy asardan, kino filmlardan, jurnal yo boshqa shu kabi vositalar orqali uddalaydilar. Demak, mustaqil órganish imkonsiz emas.

Har bir yangi ta'limni boshlashda xoh u ilm-fanga oid bo'lsin, xoh tilga, birinchi o'rinda insondan kuchli xohish talab etiladi. Bu "men shuni o'rganmoqchiman", bilishni juda xohlayman" deyish bilan bo'lmaydi, balki ichki ixlos qo'yish orqali bajariladi. U nima degani? Bizda 2 xil xohish mavjud: ya'ni 1-biz tushunib yetgan; 2-biz anglamagan xohish. Masalan, siz 5 ta tilda bemalol muloqot qila olishni maqsad qildingiz, xohlaysiz. Ammo ichki tomondan "Men buni baribir eplolmayman", yoki oldindan miyaga ornashib qolgan gaplar, ya'ni "Baland dorga osilma", "ko'rpaningga qarab oyoq uzat" kabi gaplar o'tadi. Mana bu ruhiyatning siz belgilagan niyatlarga tayyor emasligi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, biror narsaga ixlos qo'yish ham, uni o'zgartirish hami insonning o'ziga, faqat o'ziga bog'liq. Shu o'rinda Adam Jeksonning bir gapini keltirib o'tish o'rinni: "O'ziga ta'sir qilib, ixlos qilish-o'z-o'ziga takror uqtirishga asoslangan oddiy texnika". Bundan shu xulosa kelib chiqadi, kimki o'z maqsadini tez-tez takrorlab tursa, bu uning ichki

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

istagiga aylanadi. Maqsadlarni biror qog'ozga yozib, kunda 3 yo 4 marta qaytargan ma'qul.

Mustaqil ravishda til o'rganishda yana quyidagiga e'tiborli bo'lish lozim: puxta o'ylangan reja. Bunda o'sha tilni kuniga necha soat, aynan qaysi vaqtvari shug'ullanishini va qancha muddatda o'rganib bo'lishini aniqlab olish maqsadga muvofiq (taniqli poliglotlar yangi tilni 3-4 oyda o'zlashtirganlar). So'ngra yoddan chiqmasligi uchun uni eng ko'rinarli joyga (masalan, eshikka) ilib qo'yish kerak. Kun tartibiga amal qilishni esa qattiq nazoratga olish muhim. Hatto ulardan birortasi bajarilmasa, yoki kechiktirilsa, o'zini ayamasdan jazolash yuqori samaradorlik garovi. Albatta, jazo turlari xilma-xil, jumladan, eng sevimli mashg'ulotlarini (telefon, televizorni yoki biror shirinlikka o'chlar uchun shokoladni bir necha kunga yoki 1 haftaga) cheklash, jismoniy mashqlar bajarishni qóllash (masalan, 20 marta o'tirib-turish, yoki anjuman, turnik bilan ishslash). Yana bir usul bir necha kunga aybi uchun ro'za tutib berish (eng foydalisi).

Til o'rganish chog'ida shunisi ahamiyatlici, u tilni begonadek ko'rish noto'g'ri, balki, uni his qilish, sevish zarur. Bu shunday bo'lsinki, uni órganish chog'ida kayfiyattingiz ko'tarilib, ózingizda yana shug'ullanishga ishtiyoq paydo bo'lsin. Chunki Toni Robins aytganidek: "Eng yaxshi usul va qoidalar ham muvaffaqiyatning atigi 20%ini tashkil etadi. Qolgan 80%i inson psixologiyasiga bog'liqdir". Shuningdek, yangi tilning sizga foydali xususiyatlarini bilish, va xuddi maqsadiga erishgandek tasavvurni o'zida uyg'ota olishi muhimdir.

Hammaga shu narsa ayonki, har bir shaxs o'zi qiziqqan sohasini o'rganishni istaydi. Bu holdan esa til o'rganishda unumli foydalanish mumkin. Masalan, o'zi qiziqqan soha bo'yicha (tibbiyot, texnika, adabiyot,...) kitoblarni óqish, filmlarni ko'rish kabi. Ayniqsa, badiiy asarlar orqali o'rganish yanada samarali bo'lib, bu ko'pchilik tomonidan sinalgan usul. Jumladan, poliglot Kato Lomb rus tilini Gogolning "O'lik qalblar" asari va lug'atlar orqali boshlagan. Ko'rindiki, badiiy adabiyot katta kuchga ega.

Órganish jarayonida keyingi usul so'zlarni yod olish. Poliglotlar nuqtayi nazariga kóra: "Til o'rganishda birinchi o'rinda so'z boyligini kengaytirish, grammatika - yordamchi dastgoh". Lug'at yodlashda hammaning har xil taktikasi bo'ladi: kimdir uchragan sózlarni yon daftarchaga yozib olsa, yana kimdir ularni mayda bo'laklangan qog'oz parchalariga yozib, o'zi ko'p foydalanadigan yoki ko'p ko'zi tushadigan joyga (gars stoliga, kitoblarining yuza qismiga,...) yopishtirib boradilar. Endi shu kabilardan bir nechasini kórib o'tamiz. Olimlarning fikriga ko'ra, miyamiz yangi olingan ma'lumotni 4 kun davomida o'zida ushlab turadi. Shu bois sózlarni 4 kundan so'ng yana qaytarish - ularni shaxsiy lug'at boyligimizga qo'shishga imkon beradi. Qo'shimcha tarzda, biror bo'sh vaqtida (sayr davomida, ovqatlanishda, avtobusda,...) yangi yodlangan so'zlar ishtirokida xayolan biror qiziqarli hikoya, ertak to'qish ularni juda yaxshi eslab qolishga va o'zining qiziqishini oshirishga ko'maklashadi.

Insonlar Olloh tomonidan buyuk, kashfiyotchi, umuman olganda, ko'p qirrali xususiyatlarga ega shaxslar qilib yaratilgan. Biz hozirda egalik qilayotgan buyumlar yoki turli bilimlar (masalan, yerning yumaloqligi, uning radiusi, tortishish qonuni, nisbiylik nazariyasi yoki tibbiyotda giyohlardan foydalanish, jarrohlik) bularning barchasi insonlarning tafakkuri mahsuli bo'lib, qachonlardir bu va boshqa bilimlarni o'zlari mustaqil o'ylab topishgan. Shunday ekan chet tillarni mustaqil ravishda o'rganish ham ilojsiz emas. Qachonki, ichki xohish, jur'at, qat'iyat va sabr bo'lsa bas, buni amalga oshirish, odam yetmasdek tuyulgan viqorli cho'qqilarni zabit etish, g'alaba zavqini tuyishni har bir kuchli iroda sohibi eplay oladi. Axir aytishadi-ku: "Intilganga tole yor".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adam Jekson. Boy bo'lishning o'nta siri. - Toshkent: Davr Press NMU,2019-yil.

FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI:

1. <https://medium.com/@fotimaabdulaminova/til-organish-kaliti-12a90affbca8>
2. <https://odam.uz/Qiziqarli/til-o-rghanishning-10-ta-qoidaga-asoslangan-oson-usullari>
3. <https://odam.uz/Qiziqarli/poliglotlar-yoki-k-o-p-tillarni-biladigan-odamlar-taqdiri>